<i>Safarmurodova Marjona To'raqulovna, Ollokulova Feruza Mansurovna</i>	
FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF FINANCIAL SUSTAINABILITY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES: EVIDENCE FROM THE OIL AND GAS SECTOR.....	982
<i>Ergashev Muhibbek Aslamovich</i>	
O'ZBEKISTON MOLIYA BOZORIDA FIN TECH KOMPANIYALARI VA BANKLAR HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	988
<i>Rajabova Umida Umurzoqovna</i>	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВЫХ ПРЕФЕРЕНЦИЙ И ЛЬГОТ В ОБЕСПЕЧЕНИИ РЕГИОНАЛЬНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ (НА ПРИМЕРЕ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)	995
<i>Отамуродова Дилдора Абдуқримовна</i>	
THE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON INTERNATIONAL MARKETING: RESHAPING GLOBAL MARKET ENTRY STRATEGIES AND CONSUMER ENGAGEMENT	1001
<i>Aziz Kurbanovich Abdullaev, Ne'matullyev Bekmirzo Bozorboy o'g'li, Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li</i>	



TARIXIY-MADANIY TURIZM XIZMATLARINI MINTAQADA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH.....	1010
Erkayeva Barno Abduraximovna	
GLOBAL IQTISODIY INTEGRATSIYA SHAROITIDA MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MENEJMENT YONDASHUVLARINING ROLI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1015
Mahmudova Madinaxon Jumaboy qizi	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ УКРЕПЛЕНИЯ ДОХОДНОЙ БАЗЫ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	1020
Т. И. Бобакулов, Г. Ч. Джавлиев	
ECOTOURISM DEVELOPMENT POTENTIAL AND THE ROLE OF GUIDES IN REGIONAL TOURISM GROWTH: EVIDENCE FROM THE NAVOI REGION OF UZBEKISTAN.....	1024
Axmadova Iroda Muzaffar kizi	
DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND ITS PRIORITY DIRECTIONS.....	1030
Ollokulova Feruza Mansurovna, Guzal Abdimurodova Panjiyevna	
KORRELYATSION - REGRESSION TAHLILNING QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA QO'LLANILISHI AHAMIYATI.....	1035
Butanova Dilnoza Rustamovna	
MADANIYATLARARO YETAKCHILIK VA LINGVOMADANIY KOMPETENTSIYA BOSHQARUV ISHI SIFATIDA.....	1042
Rahimova Gulnoza	
SANOAT KORXONALARINI YANGI TEXNIKA VA TEXNOLOGIYA BILAN TA'MINLASH JARAYONLARINING HOZIRGI ZAMON HOLATI.....	1052
Akbarova Maloxat Atabekovna	
UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA INNOVATSION RIVOJLANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH.....	1056
Abdukadirova Nilufar Abdaxatovna	
FARG'ONA VILOYATIDA INVESTISIYA SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH BARQAROR IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA.....	1062
Qo'chqarov Yunusali Sobirjonovich	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL KREDITLASH" TIZIMI: NAZARIYA VA AMALIYOT.....	1069
Erkinov Farrux Rustam o'g'li	



O‘ZBEKISTONDA “YASHIL KREDITLASH” TIZIMI: NAZARIYA VA AMALIYOT

Erkinov Farrux Rustam o‘g‘li

TDIU “Bank ishi” kafedrasida mustaqil tadqiqotisi

Annotatsiya. Maqolada mamlakatda iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida yashil bank kreditlari vositasida iqtisodiyotni rag‘batlantirishning asosiy yo‘nalishlari o‘rganilgan va respublikada energiya tejamkorligi va zaxarli gazlarni kamaytirish yo‘llarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Tijorat banki, yashil kreditlash mexanizmi, kredit operatsiyasi, bank tizimi, yashil iqtisodiyot, yashil loyiha, yashil moliyalashtirish.

Abstract. This article examines the main directions for stimulating the economy through green bank loans in the context of transforming the country's economy, and develops scientific proposals and practical recommendations aimed at developing methods for energy conservation and reducing toxic gases in the republic.

Key words: Commercial bank, green lending mechanism, credit operation, banking system, green economy, green project, green financing.

АННОТАЦИЯ. В статье изучены основные направления стимулирования экономики посредством зеленых банковских кредитов в условиях трансформации экономики страны, а также разработаны научные предложения и практические рекомендации, направленные на развитие способов энергосбережения и сокращения токсичных газов в республике.

Ключевые слова: Коммерческий банк, механизм зеленого кредитования, кредитная операция, банковская система, зеленая экономика, зеленый проект, зеленое финансирование.

KIRISH

So‘ngi yillarda jahonda sodir bo‘layotgan iqlim o‘zgarishi XXI asrning eng muhim siyosiy va iqtisodiy muammolaridan biriga aylandi. Global miqyosda hukumatlar, investorlar va korporatsiyalar iqlim inqirozini bartaraf etish bo‘yicha tobora ko‘proq turli choralarni ko‘rmoqda, bunda dekarbonizatsiya strategiyalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Hukumatlar va xususiy sektor issiqxona gazlari chiqindilarini nol darajaga tushirish bo‘yicha majburiyatlar olayotgan bir paytda, mijozlar, investorlar va tartibga soluvchi organlar tomonidan bosim ham kuchayib bormoqda, bu esa “yashil moliyalashtirish”ning rivojlanishiga olib kelmoqda.

2015-yil 12-dekabrda BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasining 21-sessiyasida qabul qilingan Parij kelishuvi doirasida mamlakatlar moliyaviy resurslarni iqtisodiyotni “yashillashtirish”, iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish va ularning salbiy oqibatlariga moslashish loyihalariga yo‘naltirish majburiyatini olgan.

Jahon “yashil moliyalashtirish” bozori hajmi 2012-yildagi 5,2 mlrd AQSh dollaridan 2021-yilda 540,6 mlrd AQSh dollarigacha, ya‘ni yuz martadan ortiq oshgan.[1] YUNKTAD baholariga ko‘ra, barqaror moliyalashtirish bozori o‘shishda davom etmoqda: 2023-yilda barcha barqaror investitsiya mahsulotlarining qiymati 7 trln AQSh dollaridan oshib, 2022-yilga nisbatan 20 foizga ko‘paygan, shundan “yashil moliyalashtirish” ulushi 587 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan.[2]

O‘zbekistonda ham mazkur yo‘nalish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda, xususan, 2025 yildan boshlab shakllantiriladigan investitsiya dasturlari, tarmoq, sohalar va hududlarni rivojlantirish bo‘yicha yangi loyihalarning 15 foizida, 2027 yildan boshlab — 30 foizida, 2030 yildan boshlab — 55 foizida «yashil komponentlar» bo‘lishi lozim;

davlat organlari va tashkilotlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ishlab chiqiladigan uglerod neytralligiga erishish, iqlim o‘zgarishiga moslashish, atrof-muhitni asrash, yashillik darajasini oshirish va «yashil loyihalar»ni amalga oshirishga qaratilgan «yashillik dasturlari» Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlanadi.[3]

Demak, past uglerodli yoki “yashil” iqtisodiyotga o‘tish katta hajmdagi yangi kapital qo‘yilmalarni, xususan, issiqxona gazlari chiqindilarini qisqartirish, atrof-muhit holatini yaxshilash hamda global iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlariga moslashish faoliyatini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan “yashil moliyalashtirish”ni talab etadi.



Yuqoridagilardan ko'rinib turganidek iqlim o'zgarishi jiddiy muammo bo'lsada, uning yechimlari mavjuddir. Byudjet-soliq siyosati va texnologik taraqqiyot iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda hal qiluvchi o'rinni egallasada, moliyaviy tizim, ayniqsa bank tizimi ham muhim rol o'ynaydi. Bunda bank tizimining yashil moliyalashtirish va kreditlash siyosati to'ldiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Ana shu o'rinda yashil kreditlashning ahamiyati sezilarli darajaga chiqadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon amaliyotida "yashil moliya" kontseptsiyasi bank tizimi faoliyatiga keng tatbiq etilib, ekologik investitsiyalarni moliyalashtirish, karbon chiqindilarini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash va tabiat muhofazasiga qaratilgan dasturlarni moliyalashtirish orqali banklar "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishda faol ishtirok etmoqda. Shu bilan birga, moliyaviy barqarorlik va ekologik xavflar bilan bog'liq tavakkalchiliklarni ham hisobga olgan holda bank islohotlarini amalga oshirish yangi institutsional yondashuvlarni talab etmoqda.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda "yashil" loyihalarni moliyalashtirishning asosiy shart-sharoitlari va xususiyatlari, "yashil" loyihalarni moliyalashtirish manbalari ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan maxsus ilmiy tadqiqot sifatida o'rganilgan bo'lib mazkur tadqiqotlar muhim ilmiy yondoshuvlarga egadir.

«Yashil» moliyalashtirish tushunchasiga xalqaro tashkilotlar va hukumatlar miqyosida BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP), Jahon Bankining Ekspert komissiyasi, Yevropa Ittifoqi, Germaniya Hukumati va Shveysariya Atrof-muhit federal vazirligi tomonidan ta'riflar ishlab chiqilgan. Milliy institutlar darajasida «yashil» moliyalashtirish tushunchasiga Xitoy Xalq banki va Buyuk Britaniyaning Malakali bank xodimlari instituti tomonidan berilgan ta'riflarni keltirish mumkin.

Ilm olamida birinchi bo'lib Kolmbiya universiteti professori Richard Sandor 1992 yilda o'z ilmiy ishlarida «yashil» moliya atamasini qo'llagan hamda mazkur atamaga o'z mualliflik ta'rifini bergan.

Uning fikriga ko'ra, «yashil» moliyaga – avvalo iqlim o'zgarishlariga to'sqinlik qiladigan loyihalarni moliyalashtirishga ustuvorlik berish orqali atrof-muhitga issiqxona gazlari chiqarilishini kamaytirish orqali yanada barqaror va ekologik toza iqtisodiy o'sishni ta'minlashni harakatga keltiruvchi asosiy mexanizm sifatida qarash kerak.[4]

U.Volz boshchiligidagi ilmiy jamoaning fikriga ko'ra, «yashil» moliyalashtirish atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan va ekologik barqarorlikni oshirishga qaratilgan barcha investitsiyalash va kreditlash shakllarini o'z ichiga oladi.[5]

«Yashil» moliyalashtirish atamasiga Xalqaro hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) tomonidan ishlab chiqilgan ta'rif ham e'tiborga molik. «Yashil» moliyalashtirish – bu iqtisodiy o'sishga erishish bilan bir paytda issiqxona gazlari emissiyasi, atrof-muhit ifloslanishi va chiqindilar chiqarilishini kamaytirish hamda tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishni moliyalashtirishdir.[7]

Mamlakatimizdagi olimlardan A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev,[8] Z.Nurov, M. X. Rajabova,[10] T.K. Iminov, T.Z.Teshaboyev, M.T. Bo'taboyev va boshqa iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Masalan, B.Izbosarov va Z.Baymurodova kichik biznesning yashil iqtisodiyot sharoitida rivojlanishidagi muammolari – resurslarning cheklanishi, kreditlashtirish, texnologiyalarga kirish, energiya samaradorligi va ekologik innovatsiyalarni joriy etish masalalarini o'rganishga bo'lsa,[11] Sh.Xalilov ekologik moliyaviy hisobotlarda ekologik samaradorlik va resurs sarfini ko'rib chiqish, kompaniyalar faoliyatining ekologik ta'sirini baholash masalalarni tadqiq qilgan.[12]

Boshqa tadqiqotlarda esa bank sektorini ekologik isloh qilish modellari, "yashil" kreditlar uchun maxsus kafolat fondlari, davlat-bank sheriklik mexanizmlari va regulyatorlar tomonidan rag'batlantirish vositalari taklif etilgan.

Yuqoridagi fikrlar va tariflarni o'rgangan holda aytish mumkinki, "yashil" moliya va "yashil" kredit tushunchalari atrof muhit va iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq holda shakllangan tushunchadir.

"Yashil moliya" (ingl. Green Finance) – bu atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qaratilgan moliyaviy faoliyat turidir.

Ushbu kontseptsiya moliyaviy xizmatlar va sarmoyalarning ekologik toza, energiya samarador, qayta tiklanuvchi energiya va atrof-muhitga minimal zarar keltiradigan loyihalarga yo'naltirilishini nazarda tutadi. Yashil moliya faqatgina bank kreditlari emas, balki yashil obligatsiyalar, lizing, investitsion fondlar, kafolatlar va xalqaro grantlar kabi turli moliyaviy instrumentlarni o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, «yashil moliya» tamoyillarini bank tizimida joriy etish ko'p omilli jarayon sifatida ko'riladi. Mazkur jarayonda regulyator siyosat, institutsional islohotlar va moliyaviy innovatsiyalar o'zaro uyg'unlikda faoliyat yuritishi lozim. O'zbekistonda bu yo'nalishdagi tadqiqotlar hali rivojlanish bosqichida bo'lib, jahon



tajribasi va milliy shart-sharoitlarni integratsiya qilgan holda samarali modellar ishlab chiqish bugungi kunda intensiv ravishda olib borilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy ishni amalga oshirishda tijorat banklari tomonidan mijozlarni yashil kreditlash va yashil moliyalashtirish jarayonlarini rivojlantirishda olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtda jaxon moliya-bank tizimida yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ma'lumki, barqaror rivojlanish kontseptsiyasini shakllantirishning boshlang'ich nuqtasi 1992 yilda Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) tomonidan qabul qilingan "XXI asr kun tartibi" dasturi bo'ldi.

Bugungi kunda haqiqiy investitsiyalar hajmi va "yashil" investitsiyalarga bo'lgan ehtiyoj orasida katta tafovut mavjud. Xususan, Evropa Ittifoqi mamlakatlari uchun 2020 yilda birgina energetika sohasidagi investitsion nomutanosiblik 500 million evroga baholangan.[14]

Mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish, tejamkor va yuqori samarali energiya texnologiyalarini qo'llash masalasiga istiqbolning dastlabki yillaridan alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda mahalliy hamda xorijiy investitsiyalar jalb etilgan holda, ko'plab istiqbolli loyihalar amalga oshirilayapti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil oktabrdagi PQ-4477 qarori bilan 2019–2030-yillarda "yashil" iqtisodiyotga bo'yicha Milliy strategiya ma'qullandi hamda "Yashil" iqtisodiyot bo'yicha idoralararo kengash tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan "O'zbekiston milliy iqtisodiyotini kamuglerodli rivojlanishga o'tish jara'ida qo'llab-quvvatlash" qo'shma loyihasi shu maqsadga qaratilgan bilan e'tiborga molik.

Bugungi kunga qadar qo'shma loyiha doirasida "Kamuglerodli rivojlanish strategiyasi" hamda 2050 yilgacha bo'lgan davrda bajariladigan tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Ularga muvofiq, ha'etga tatbiq etiladigan yangiliklar tufayli 27,3 million tonna neft ekvivalentiga teng bo'lgan energiya resursi tejaliishi kutilayapti.

Hozirgi global tendentsiyalar shuni ko'rsatmoqdaki, yashil moliya instrumentlari - xususan, yashil obligatsiyalar, karbon kreditlari, ekologik sug'urta va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari - orqali ekologik investitsiyalarni jalb etish kengaymoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham yashil iqtisodiyotga o'tish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. "O'zbekiston-2030" Strategiyasi[15] va "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi-2030" [16] doirasida energetika samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va ekotizim barqarorligini ta'minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

"O'zbekiston-2030" strategiyasi tarkibida yashil iqtisodiyotga o'tish yashil moliyalashtirishga taaluqli bo'lgan maqsadlar ham o'rin egallagan. Ular quyidagilar:

- "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish;

- "Yashil energiya" texnologiyalarini keng joriy qilish doirasida nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste'molini kamaytirish;

- Respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta'sir o'tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish;

- Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasini kengaytirish;

- Iqlim o'zgarishi salbiy ta'sirining oldini olish va boshqalar.

Markaziy bank, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Xalqaro moliya institutlari hamkorligida 2021-2024-yillarda qator yashil moliyaviy instrumentlar amaliyotga kiritildi.[17] Xususan:

- 2022-yilda Toshkent shahrida ilk marta yashil suveren obligatsiyalar chiqarildi, umumiy qiymati 50 million AQSh dollari bo'lgan ushbu obligatsiyalardan tushgan mablag'lar qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga yo'naltirildi;

- 2023-yilda "Yashil bank mahsulotlari" dasturi ishlab chiqildi, u doirada tijorat banklari orqali energiya tejamkor uskunalar sotib olish uchun imtiyozli kreditlar (jami 300 mlrd so'm) ajratildi;

- 2024-yil holatiga ko'ra, mamlakatda yashil loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun jami 1,2 trln so'mdan ortiq mablag' safarbar etildi.



Shu bilan birga, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, Asia Development Bank (ADB) va Green Climate Fund (GCF) bilan hamkorlikda qator yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Masalan, Navoiy va Buxoro viloyatlarida quvvati 200 MVt bo'lgan quyosh elektr stantsiyalari qurilishi uchun 250 million dollar miqdoridagi yashil kreditlar ajratilgan. Bundan tashqari, davlat byudjeti loyihalarida ekologik samaradorlik indikatorlari joriy qilinmoqda, bu esa natijaga asoslangan byudjetlashtirishda (RBB) yashil moliyalashtirishning ahamiyatini oshirdi.

Shu tarzda, O'zbekistonda yashil moliyalashtirish islohotlari nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, balki iqtisodiyot tarmoqlarida energiya sarfini kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qilmoqda.

Hukumat va hamkorlarning mavjud hisob-kitoblari asosida «yashil» o'tish yalpi ichki mahsulotning 8-10 foiziga teng bo'lgan yillik investitsiyalarni talab qilishi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval. "Yashil" o'tish uchun talab qilingan yillik investitsiyalarning hajmi [17]

«yashil» o'tishning ustuvorliklari	Baholash metodologiyasi va manbasi	yillik investitsiyalar (mlrd. aqsh doll.)		yillik investitsiyalar (% YaIM)
		yillar	zumma	
1.Uglerod neytralligi/ dekarbonizatsiya. Issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va/yoki issiqxona gazlarining har qanday mavjud chiqindilarini chiqarib tashlash orqali muvozanatlashtirishni ta'minlash	Uzoq muddatli variantlar va yo'llar kam uglerodli rivojlanish O'zbekiston Respublikasi (DRAFT) Jahon bankining qo'llab-quvvatlashi va boshqalar.	UN-2055	18,74	6,21%
	Kam uglerodli investitsiyalar rejasi O'zbekiston YTTB ko'magida	UN-2060	20,41	6,84%
2.Barqaror ishlab chiqarish va sarflash	Turli tadqiqotlar			1,00%
3.Adaptatsiya va boshqalar ekologik jihatlari, masalan, bioxilma-xillik	Tarmoq investitsiyalari rejalar va yo'l xaritalari, xarajatlar smetasining mavjudligi. Turli tadqiqotlar.	Moslashish 2030-yil	2-3	1-1,5%
4. Moslashuvchan ijtimoiy himoya xavflarini yumshatish, salohiyatni oshirish va «yashil» ish o'rinlari	Turli tadqiqotlar			

Hukumat bilan ishlaydigan Jahon banki hisob-kitoblariga ko'ra, uglerod neytralligi ssenariysi doirasida 2055-yilga kelib «yashil» investitsiyalarga bo'lgan o'rtacha yillik ehtiyoj 20,41 milliard dollarni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. AQSH dollari - amaldagi darajadan deyarli uch baravar ko'p, bunda asosiy ehtiyoj elektr energiyasiga to'g'ri keladi (9,74 mlrd. AQSH dollari) va Havoning to'g'ridan to'g'ri tutilishi (3,44 mlrd. AQSH). Hatto 2060-yilga kelib uglerod neytralligining yanada silliq ssenariysi doirasida ham taxminiy ehtiyojlar 18,74 milliard dollarni tashkil etadi. AQSH dollariga teng bo'lib, YaIMga nisbatan mos ravishda 6,84% va 6,21% ni tashkil etdi. Moslashish va chidamlilik yana yiliga 2-3 milliard AQSH doll. qo'shadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8 oktyabrdagi "Issiqxona xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish va eksport hajmini ko'paytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi [PF-181-sonli farmoni](#)¹[18] bilan yangi imkoniyat va zaxiralardan foydalangan holda issiqxona xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish va eksport hajmini ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar belgilandi.

Mazkur farmonda 2025-2027-yillarda meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari eksporti hajmini oshirish, issiqxona xo'jaliklari faoliyatini yanada rivojlantirish va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish bo'yicha asosiy maqsadli ko'rsatkichlar belgilandi. Xususan,

- meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari eksporti hajmini 2026-yilda \$3,5 mlrdga va 2027-yilda 4 mlrd dollarga yetkazish;

- tabiiy gaz bilan kafolatli ta'minlangan issiqxona xo'jaliklarida meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish hajmini 2026-yilda 620 ming tonnaga va 2027-yilda 670 ming tonnaga yetkazish hamda ushbu mahsulotlar eksporti hajmini 30 foizdan 70 foizga oshirish;

2026-yilda qo'shimcha 20 ming gektar, 2027-yilda 15 ming gektar maydonga mevali daraxt va sabzavot ko'chatlarini ekishni tashkil etish.

1 <https://lex.uz/uz/docs/-7761763>



• qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarida qurilgan issiqxona komplekslarini foydalanishga qabul qilish va ularga birlashtirilgan mol-mulkni davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng tijorat banklari tomonidan ularga kreditlar ajratiladi va yer uchastkasini kredit ta'minoti sifatida qo'llashni rad eta olmaydi.

Bundan tashqari farmonda issiqxona xo'jaliklariga qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan issiqlik ta'minoti va sovitish xizmatlari umumiy qiymatining 50 foizi miqdorida aylanma mablag'larni to'ldirish hamda chang-gaz tozalash uskunalarini o'rnatish uchun banklar tomonidan 12 oy muddatga yillik 14 foiz stavkada (shundan bank marjasi 4 foiz) imtiyozli kreditlar ajratish, isitish va sovitish tizimlarining energiya samaradorligini oshirish platformasini xarid qilish bilan bog'liq issiqlik nasoslarini o'rnatish xarajatlarining 20 foizigacha bo'lgan qismi energiya samaradorligini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplab berish vazifalari ham ko'rsatib o'tilgan.

Yuqorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish va ushbu yo'nalishlarga ajratilishi belgilanayotgan yashil kreditlar mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya (quyosh, shamol), suv tejash, energiya samaradorligi kabi sohalarni qo'llab-quvvatlaydi hamda O'zbekistonning 2030-yilgacha parnik gazlarini kamaytirish maqsadlariga erishishga amaliy yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqlim o'zgarishiga qarshi samarali moliyaviy mexanizmlarni joriy etish uchun bank tizimini "yashil moliya" tamoyillari asosida isloh qilish dolzarb ahamiyatga ega. Bu jarayon bank faoliyatini ESG mezonlariga muvofiq qayta yo'naltirish, yashil loyihalarni moliyalashtirishni rag'batlantirish va ekologik xavflarni moliyaviy xavf sifatida integratsiyalashni nazarda tutadi. O'zbekiston bank tizimida "yashil moliya" asosidagi islohotlar samarador bo'lishi uchun huquqiy, institutsional va moliyaviy mexanizmlar uyg'un ravishda ishlashi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 21-son²li farmonida "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish, jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining jami generatsiyadagi (iste'moldagi) ulushini 54 foizga yetkazish, issiqxona gazlarini yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming MVtga yetkazish, issiqlik tarmoqlaridagi yo'qotishlarni 20 foizga tushirish, gidro elektr va to'plash elektr stansiyalari quvvatini 5 370 MVtga yetkazish va boshqa yo'nalishlar belgilab qo'yilgan.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot jarayonida erishilgan natijalar shuni ko'rsatdiki, mamlakatimizda yashil kreditlash amaliyotining takomillashtirish borasida bir qator dolzarb, yechimini kutayotgan muammolar mavjud bo'lib, ulardan asosiylari fikrimizcha, quyidagilardan iboratdir:

O'zbekiston bank sektorida "yashil moliya" tamoyillarini joriy etish nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki moliyaviy tizimning strategik transformatsiyasi uchun muhim asos hisoblanadi. "Yashil" moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish, ekologiya bilan bog'liq tavakkalchiliklarni moliyaviy siyosatga integratsiya qilish, bank faoliyatida barqarorlik mezonlarini nazarda tutuvchi mexanizmlarni shakllantirish kabi yondashuvlar milliy bank xizmatlari bozorida mutlaqo yangi sifati bosqichini yuzaga keltirishi mumkin.

Fikrimizcha, mamlakatda yashil kreditlash tizimini takomillashtirish maqsadida quyidagi amaliy ishlarni olib borish zarur:

- mamlakat bank tizimida yashil kreditlash taksonomiyasini (aniq mezonlarni) ishlab chiqish va ularni bank tizimi kreditlash faoliyatiga joriy qilish kerak,
- Banklar uchun ESG doimiy ravishda treninglarini shakllantirish va bank xodimlarini mazkur treninglar malakasini oshirish ishlarini kuchaytirish;
- Davlat tomonidan energiya tejovchi va zararli gazlarni pasaytirishga qaratilgan hamda muqobil energiya ishlab qiluvchi manbalarga ajratiladigan subsidiya va imtiyozlar tizimini kengaytirish;
- mazkur yo'nalishga xususiy sektor ishtirokini jalb qilish va uning hajmini 2030-yillarga qadar yilma-yil kengaytirib borish;
- navbatdagi yo'nalish bu mamlakat moliya bozori infratuzilmasida yashil obligatsiyalar bozorini tobora rivojlantirish va shu kabilar.

Shu bilan birga, ushbu yo'nalishdagi keyingi taraqqiyot institutsional muhitni izchil takomillashtirishni, moliyaviy vositalar doirasini kengaytirishni va biznes va bank sektorini yashil kun tartibini amalga oshirishda faolroq ishtirok etishni talab qiladi.

Shubhasiz, yashil moliyalashtirish mexanizmlarini mustahkamlash nafaqat ekologik siyosat samaradorligini oshiradi, balki barqaror iqtisodiy o'sish, mamlakatning investitsiya jozibadorligini oshirish va aholining hayot sifatini yaxshilashda muhim omilga aylanadi.

2 <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Green finance: a quantitative assessment of market trends. — URL: <https://www.thecityuk.com/our-work/green-finance-a-quantitative-assessment-of-market-trends/> (accessed: 11.06.2022)
2. UNCTAD Sustainable finance trends. — URL: https://unctad.org/system/files/official-document/wir2024_ch03_en.pdf (accessed: 11.06.2024)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-sonli Farmoni.
4. Sandor R. Good derivatives: a story of financial and environmental innovation. Hoboken: John Wiley & Sons; 2012. 640 p. <https://www.wiley.com/en-us/Good+Derivatives%>
5. Volz U., Böhnke J., Eidt V., Knierim L., Richert K., Roeber G.-M. Empirical analysis of supply of and demand for green finance in Indonesia. in: Financing the green transformation: how to make green finance work in Indonesia. Basingstoke: Palgrave Macmillan. 2015. -P. 56-94. DOI: 10.1057/9781137486127_4
6. Toymuxamedov, I. R., Norov, A. R., Ibodullayeva, M. T. Qizi., Bekmurodova, G. ., & Farmanova, U. A. qizi . (2023). Prospects of Implementing Islamic Financial Mechanisms to Uzbekistan. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 3(2), 34–41. Retrieved from <https://www.inovatus.es/index.php/ejbsos/article/view/1443>
7. Green Finance and Investment http://www.oecd-ilibrary.org/environment/green-finance-and-investment_24090344
8. Иминов Т.К., Вахобов А.В., Тешабоев Т.З., Бўтабоев М.Т. (2019). "Зелёная экономика" как основа устойчивого развития. Монография. - Т: "Алоқачи", 480.
9. Toymuxamedov I. R. et al. The Role of Bank Investment Loans in Increasing the Export Potential of Uzbekistan Enterprises //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2022. – Т. 5. – С. 356-361.
10. Z.Nurov, M. X. Rajabova (2022). "Yashil iqtisodiyot" da energetika sohasining iqtisodiy. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 781-787.
11. Baymuradova Zilola Alisherovna, Boburjon Bahriddinovich Izbosarov. Problems and prospects of developing small business in Uzbekistan under the conditions of a green economy. «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali, Vol. 3 No. 6 (2025).
12. Khalilov Sherzod Akhmatovich. Development of a green accounting methodology in Uzbekistan: lessons from the Malaysian experience. Scientific Journal of "International Finance & Accounting" Issue 1, February 2024. ISSN: 2181-1016
13. Toymuxamedov, I. (2023). O'zbekiston qishloq xo'jalik tuzilmalari faoliyatini rivojlantirishda tijorat banklari kreditlarining o'rnı. Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка, 146–149. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/financial-market-growth/article/view/19052>
14. Федорова Е. П. Роль государства в решении проблем развития «зеленого» финансирования. Финансовый журнал. 2020;12(4):37–51. DOI: 10.31107/2075–1990–2020– 4–37–51.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «"O'zbekiston -2030" Strategiyasi to'g'risida»gi PF-158-son Farmoni, 11.09.2023 yil
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori, 04.10.2019 yil
17. Оценка финансирования «зеленого» развития для Узбекистана. Краткое содержание. Узбекистан., 2025, с-2.
18. <https://lex.uz/uz/docs/-7761763>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>